



TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA RISKINI BOSHQARISH MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI

PROBLEMS OF CURRENCY RISK MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS AND WAYS TO SOLVE THEM

¹Tugalov Bobur
Qarshiboy o'g'li

¹Toshkent Kimyo xalqaro universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada valyuta riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va valyutaviy likvidligini ta'minlashning zaruriy sharti ekanligi asoslangan. Jumladan, valyuta operatsiyalaridan ko'riladigan zararlar miqdorining oshishi ta'sirida tijorat banklari sof foydasinining kamayishiga olib kelishi. Shuningdek, maqolada respublika tijorat banklarining faoliyatidagi valyuta riskini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article substantiates that improving the practice of currency risk management is an essential condition for ensuring the financial stability and foreign exchange liquidity of commercial banks. In particular, the increase in losses from foreign exchange operations leads to a decrease in the net profit of commercial banks. Moreover, the article identifies current problems related to currency risk management in the activities of the country's commercial banks and develops scientific proposals aimed at solving these issues.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banki, valyuta riski, valyuta operatsiyasi, valyuta pozitsiyasi, spot, forvard, svop, zarar, daromad.*
❖ *commercial bank, currency risk, currency operation, currency position, spot, forward, swap, loss, income.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o'z mablag'larini o'zining hohishiga ko'ra erkin tasarruf etish huquqlarini ruyobga chiqarish to'liq ta'minlash, milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilashda bozor mexanizmlarini qo'llash, valyuta resurslarini boshqarishning bozor

mexanizmlarini qo'llash vazifalarining qo'yilganligi [1] hamda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish

orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashni mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilganligi [1] tijorat banklarining faoliyatidagi valyuta riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

F.M. Sitin va Ye.V. Kayashevaning fikriga ko'ra, hozirgi davrda valyuta risklarini turkumlash bo'yicha ko'plab yondashuvlar mavjud. Biz e'tirof etgan turkumlashga ko'ra, valyuta risklarining quyidagi to'rt turi mavjud:

- ❖ translyatsion valyuta riski;
- ❖ tranzaksion valyuta riski;
- ❖ operatsion valyuta riski;
- ❖ yashirin valyuta riski [2].

Mualliflar operatsion valyuta riskini valyuta kursining noqulay tebranishi natijasida kompaniyalarning bozordagi holatiga salbiy ta'sirni yuzaga kelishi va buning natijasida ularning raqobatbardoshligiga putur yetishi va tushumning kamayishi sifatida talqin qilishadi. Ularning fikricha, operatsion valyuta riski tranzaksion valyuta riskidan farqli ravishda subyektiv va ehtimoliy mazmunga ega. Valyuta riskining ushbu turiga ko'proq eksport va import operatsiyalari bilan shug'ullanadigan hamda faqat ichki valyuta bozorida ishlaydigan nomoliyaviy institutlar duchor bo'lishadi.

F.M. Sitin va Ye.V. Kayashevaning fikricha, yashirin valyuta riski translyatsion, tranzaksion va operatsion valyuta risklari kabi bir qarashda ko'zga tashlanmaydi. Masalan, mol yetkazib beruvchi ichki bozorda import qilinadigan resurslarni iste'mol qilishi mumkin va uning xizmatlaridan foydalanuvchi kompaniya bilvosita operatsion valyuta riskiga duchor bo'ladi (mol yetkazib beruvchining xarajatlarini oshishi kompaniyani o'z mahsulotlarining baholarini oshirishga majbur qiladi). Shuningdek, yashirin valyuta riski xorijdagi sho'ba kompaniya riskka duchor bo'lganda yashirin translyatsion risk yuzaga keladi. Konvertatsiya riskini ham (davlatning valyuta siyosatini ehtimoliy o'zgarishi, shu

jumladan, valyuta-ayirboshlash operatsiyalariga cheklovlarni joriy qilinishi) yashirin valyuta riski tarkibiga kiritish mumkin.

A. Demskaya yozadiki, zamonaviy moliya bozori valyuta riskini xedjirlashning forvard, fyuchers, opsiyon va svop kabi instrumentlarini taklif qiladi, biroq, ushbu instrumentlarning qaysi biri valyuta riskini kamaytirishning nisbatan samarali instrumenti hisoblanadi, degan savol ochiq qolmoqda. Xedjirlash taktikasini ishlab chiqish uch asosiy savolga javob berishga asoslanadi: "nima?" – qaysi xedjirlash instrumentini tanlash kerak; "qayerda?" – birja instrumentimi yoki birjadan tashqari bozor instrumentimi (qaysi kontragent bilan); "qachon?" – bitimni amalga oshirish vaqtini qanday qilib tanlash kerak [3].

A. Feldman valyuta riskini boshqarishning asosiy instrumentlaridan biri bo'lgan valyuta opsioni xususida shunday deydi: "valyuta opsioni ikki kontragent o'rtasida tuzilgan muddatli valyuta bitimi bo'lib, unga muvofiq sotib oluvchiga ma'lum miqdordagi valyutani, sotuvchi foydasiga opsiyon mukofotini to'lash sharti bilan, sotib olish huquqi beriladi, sotib olish majburiyati yuklanmaydi, sotuvchi esa, o'z navbatida, opsiyon shartnomasi bo'yicha mutlaq majburiyatga ega bo'ladi. Ta'kidlash joizki, valyuta opsioni zararlariga barham berish bilan birga, valyuta kurslarining farqi tarzidagi foydani olish imkonini beradi (fyuchers va forvard bunday imkoniyatni bermaydi)" [4].

Haqiqatdan ham, "koll" opsiyonlar ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi, lekin unga shu valyutani sotib olish majburiyatini yuklamaydi. Biroq, "koll" opsiyonni sotgan tijorat bankida valyutani opsiyon egasiga sotish majburiyati har doim mavjud bo'ladi.

M. Dmitriyevaning xulosasiga ko'ra, valyuta riskiga ta'sir etuvchi omillarni ikki yirik toifaga ajratish mumkin: tashqi va ichki. Tashqi omillarga asosan valyuta kurslarining tebranishi va davlat hokimiyati organlarining

obyekti bo'lgan valyutaviy qimmatliklarning harakatlari kiradi. Ichki omillar, o'z navbatida, valyuta riskining asosiy tarkibiy qismlari sifatida risk subyekti va obyektiga xos bo'lgan xarakterli belgilarga bo'linadi. Valyuta riski yuzaga kelishining asosiy tashqi omili bo'lib, shubhasiz, valyuta kurslarining tebranishi hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar faqat rivojlanayotgan mamlakatlarning valyutalari, ularning iqtisodiy va siyosiy kon'yunkturasi barqaror bo'lmaganligi sababli, tebranishning yuqori amplitudasiga ega, deb hisoblashadi [5].

L. Gusarova amalga oshirgan ilmiy tadqiqoti natijalariga asoslanib xulosa qiladiki, so'nggi paytlarda ma'muriy valyuta riski ko'proq dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda va aniqlash mezonlariga quyidagi komponentlar kiradi:

- ❖ pul-kredit siyosatining mexanizmlaridan milliy valyutaning jahon bozoridagi maqomini o'zgartirish uchun foydalanish;

- ❖ kompaniya-rezidentlarda kapitalni o'tkazish va olib kirishga nisbatan cheklash yoki ta'qiqlash choralarini joriy qilish;

- ❖ tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishga nisbatan cheklash yoki ta'qiqlash choralarini joriy qilish;

- ❖ Markaziy bank tomonidan valyuta intervensiyasini o'tkazish [6].

D. Piskulovning fikriga ko'ra, valyuta riski ko'pincha tijorat banki tomonidan xalqaro hisob-kitoblarni va xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladi. Jumladan, bunday risk valyuta shartnomasini bajarishda, shu jumladan, qarshi tomon defoltga uchraganda yuzaga kelishi mumkin. Bunday sharoitda, valyuta riski kredit riskining shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, turli vaqt zonalarida to'lovlarni amalga oshirilishi natijasida hisob-kitob riski yuzaga kelishi mumkin. Bunda birinchi to'lovdan ikkinchisiga qadar qarshi tomon defolt holatiga tushib qolgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida

valyuta pozitsiyalarini qoplash muddatlarini o'zaro mos kelmasligi natijasida foiz riski yuzaga kelishi mumkin [7].

J. Sinkining xulosasiga ko'ra, mabodo tijorat banki ma'lum bir sabablarga ko'ra, balansning ichkarisida xedjirlashni amalga oshira olmagan bo'lsa, u holda, xedjirlash maqsadida balansdan tashqari usullarni qo'llashi, ya'ni valyutaviy derivativ instrumentlaridan – fyucherslar, forvardlar, opsionlar yoki svoplardan foydalanishi mumkin [8].

M. Ibodullayevaning tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklarida ochiq valyuta pozitsiyalarining regulyativ kapitalga nisbatan darajasini oshishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, birinchidan, valyutaviy spot, svop, forvard operatsiyalari va valyuta opsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali qisqa va uzun valyuta pozitsiyalari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash kerak; ikkinchidan, tijorat banklarining valyuta zaxiralari tarkibini yetakchi valyutalarda zaxiralarni teng nisbatda shakllantirish va zaxiralar tarkibini yangilash orqali diversifikatsiya qilish lozim; uchinchidan, milliy valyutaning nominal almashuv kursiga nisbatan yuzaga kelayotgan bosimlarning ta'sirini neytrallashtirish orqali devalvatsiya jarayonining uzluksizligiga barham berish zarur [9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2017-yil 5-sentabrdan boshlab valyuta siyosatini liberallashtirilishi tufayli milliy valyuta-so'mning xorijiy valyutalarga nisbatan keskin qadrsizlanishi xorijiy valyutalardagi kreditlarni qaytarishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Ushbu qiyinchiliklarni ma'lum darajada yengillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-oktabrdagi PQ-5268-sonli

“Tadbirkorlik subyektlarining xorijiy valyutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq yukini kamaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga muvofiq, tijorat banklaridan xorijiy valyutada olingan kreditlar milliy valyutaga o‘tkazilganda amaldagi kompensatsiya taqdim etish to‘g‘risidagi shartnomalari mavjud bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining ekvivalenti 1 million AQSh dollaridan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmaydigan kreditlarning asosiy stavkadan oshadigan, lekin 5 foizli punktdan ko‘p bo‘lmagan qismi bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun Tadbirkorlik

faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan kompensatsiya taqdim etiladi [10].

Shunisi ahamiyatliki, tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladigan prudensial nazoratning obyekti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari uchun ochiq valyuta mavqelari limitlarini belgilash to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasiga asosan tijorat banklarining bitta valyutadagi ochiq valyuta mavqei summasi regulativ kapitalga nisbatan 10 foizdan, jami ochiq valyuta mavqei summasi regulativ kapitalga nisbatan 15 foizdan oshmasligi kerak [11].

1-jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki valyuta operatsiyalarining tarkibi*, foizda

Valyuta operatsiyalarining turlari	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Spot operatsiyalari	96,3	100,0	98,7	95,4	93,2
Forvard va svop operatsiyalari	3,7	0,0	1,3	4,6	6,8
Valyuta operatsiyalari, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

*Jadval muallif tomonidan TIF Milliy bankning moliyaviy hisobotlari ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma‘lumotlaridan aniq ko‘rsa bo‘ladiki, 2020-2024-yillarda TIF Milliy banki valyuta operatsiyalarining umumiy hajmida juda yuqori salmoqni spot operatsiyalari egallagan. Bu esa, TIF Milliy bankining forvard va svop operatsiyalarini rivojlanmaganligi, valyuta opsionlari bilan amalga oshiriladigan

operatsiyalarning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, TIF Milliy bankida 2021-yilda forvard va svop operatsiyalari mavjud bo‘lmagan. Bu esa, ushbu bankning valyuta operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

2-jadval

Aksiyadorlik tijorat “Asakabank” valyuta operatsiyalarining daromadliligi va risk darajalari*, foizda

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlarning foizsiz daromadlar hajmidagi salmog‘i	57,3	44,1	16,1	19,0	17,4
Valyuta operatsiyalaridan ko‘rilgan zararlarning foizsiz xarajatlar hajmidagi salmog‘i	22,3	27,1	57,8	66,2	49,2

*AT “Asakabank”ning rasmiy veb-sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadvalda o‘z aksini topgan ma‘lumotlardan yaqqol ko‘rinadiki, Asakabankning foizsiz daromatlari hajmida

valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlarning salmog‘i 2020-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning

ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan. Shuningdek, Asakabankda valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan zararlarning foizsiz xarajatlar hajmidagi salmog'i 2020-2023 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Qayd etilganlar valyuta riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

2-jadval ma'lumotlari asosida yana shuni qayd etish mumkin-ki, Asakabankda valyuta operatsiyalarining daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan. Masalan, 2024 yilda foizsiz daromadlari hajmida valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlarning salmog'i 17,4 foizni tashkil etgani holda, valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan zararlarning foizsiz xarajatlar hajmidagi salmog'i 49,2 foizni tashkil etgan.

3-jadval

Respublika valyuta birjasida amalga oshirilgan konversion operatsiyalarning valyutaviy tarkibi*, foizda


Ko'rsatkichlar	Yillar			
	2020	2021	2022	2023
AQSH dollarining konversion operatsiyalardagi ulushi	89,9	99,9	99,9	99,9
Yevroning konversion operatsiyalardagi ulushi	10,1	0,1	0,1	0,1
Boshqa valyutalarning konversion operatsiyalardagi ulushi	0,0	0,0	0,0	0,0
Konversion operatsiyalar, jami	100,0	100,0	100,0	100,0

*Jadval muallif tomonidan Respublika valyuta birjasining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, O'zRVBda 2020-2023 yillarda amalga oshirilgan konversion operatsiyalarning mutlaq asosiy qismi AQSH dollarida amalga oshirilgan. Buning ustiga, tahlil qilingan davr mobaynida yevrodan boshqa yetakchi valyutalar bilan konversion operatsiyalar amalga oshirilmagan. Bu esa, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Buning

sababi shundaki, yetakchi vallyutalar bilan konversion operatsiyalarni kompleks amalga oshirishni yo'lga qo'yish, birinchidan, valyuta operatsiyalari hajmini oshirish imkonini beradi; ikkinchidan, valyuta riskini boshqarish samaradorligini oshirish uchun bo'lgan zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Milliy valyuta so'mning nominal almashuv kursining volatillik darajasini yuqori ekanligi valyuta riski darajasining oshishiga xizmat qilmoqda.



1-rasm. Milliy valyuta so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan nominal almashuv kursi, so'm (har bir moliyaviy yilning 31-dekabr holatiga) [12]

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, milliy valyuta-so'mning nominal almashuv kursining volatilligi 2020-2024-yillarda sezilarli darajada yuqori bo'lgan. So'nggi 5 yil mobaynida so'mning AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanish sur'ati 23,3 foizni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarida valyuta riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- Valyuta riskiga ta'sir etuvchi omillarni ikki yirik toifaga ajratish mumkin: tashqi va ichki. Tashqi omillarga asosan valyuta kurslarining tebranishi va davlat hokimiyati organlarining obyekti bo'lgan valyutaviy qimmatliklarning harakatlari kiradi. Ichki omillar, o'z navbatida, valyuta riskining asosiy tarkibiy qismlari sifatida risk subyekti va obyektiga xos bo'lgan xarakterli belgilarga bo'linadi. Valyuta riski yuzaga kelishining asosiy tashqi omili bo'lib, valyuta kurslarining tebranishi hisoblanadi;

- 2020-2024 yillarda TIF Milliy banki valyuta operatsiyalarining umumiy hajmida juda yuqori salmoqni spot operatsiyalari egallagan. Bu esa, TIF Milliy bankining forvard va svop operatsiyalarini rivojlanmaganligi, valyuta opsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning mavjud emasligi bilan izohlanadi;

- Asakabankning foizsiz daromadlari hajmida valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlarning salmog'i 2020-2022-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan;

- Asakabankda valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan zararlarning foizsiz xarajatlar hajmidagi salmog'i 2020-2023-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Asakabankda valyuta operatsiyalarining daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan;

- O'zRVBda 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan konversion operatsiyalarning mutlaq asosiy qismi AQSh dollarida amalga oshirilgan. Buning ustiga, tahlil qilingan davr mobaynida yevrodan boshqa yetakchi valyutalar bilan konversion operatsiyalar amalga oshirilmagan;

- milliy valyuta -so'mning nominal almashuv kursining volatillik darajasini yuqori ekanligi valyuta riski darajasining oshishiga xizmat qilmoqda.

Fikrimizcha, tijorat banklarining valyuta riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Tijorat banklarining forvard operatsiyalarini rivojlantirish, spot operatsiyalarining turlari o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan ochiq valyuta pozitsiyalari hajmini qisqartirish zarur.

Respublikamiz tijorat banklarining amaliyotida valyuta opsionlari va valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar mavjud emas. Shu sababli, banklarning ochiq valyuta pozitsiyalari, asosan, spot va forvard operatsiyalari hisobidan shakllanmoqda. Ammo, forvard operatsiyalari hajmi juda kichik bo'lganligi sababli, ularning ochiq valyuta pozitsiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati juda past. Shuning uchun biz forvard operatsiyalari hajmini spot operatsiyalari hajmi kabi yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Forvard operatsiyalaridan olinadigan daromadlarning miqdorini bir vaqtning o'zida premium va discount bilan kotirovka qilinayotgan valyutalardan forvard shartnomasining obyekti sifatida foydalanish yo'li bilan ko'paytirish mumkin.

Hozirgi davrda milliy valyutamiz bo'lgan so'm barcha xorijiy valyutalarga nisbatan premium bilan kotirovka qilinayotgan bo'lsa,

EUR, SHF va JPY AQSH dollariga nisbatan diskont bilan kotirovka qilinayapti.

O'zbekistonda milliy valyuta – so'm baholovchi valyuta hisoblanadi. Biz uchun barcha xorijiy valyutalar bitim valyutasi hisoblanadi. Shuning uchun har doim so'mda depozitlarning o'rtacha foiz stavkasi olinadi. So'mdagi depozitlarning o'rtacha foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan e'lon qilib boriladi.

2. Ochiq valyuta pozitsiyalarini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish va valyuta operatsiyalari turlaridan kompleks foydalanishni yo'lga qo'yish orqali banklarning valyuta operatsiyalaridan oladigan daromadlari miqdorini ko'paytirish lozim

Respublikamiz tijorat banklarining amaliyotida valyuta opsiylari va valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar mavjud emas. Shu sababli,

banklarning ochiq valyuta pozitsiyalari, asosan, spot va forvard operatsiyalari hisobidan shakllanmoqda. Ammo, forvard operatsiyalari hajmi juda kichik bo'lganligi sababli, ularning ochiq valyuta pozitsiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati juda past. Shuning uchun biz forvard operatsiyalari hajmini spot operatsiyalari hajmi kabi yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari hajmini oshirish bo'yicha katta imkoniyatlarga ega. Ana shunday imkoniyatlardan biri bo'lib, oltinni sotishdan olingan valyuta tushumini valyutaviy svop operatsiyalari uchun moliyaviy manbaga aylantirish imkoniyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni // www.lex.uz
2. Ситин Ф. М., Каяшева Е. В. Оценка, прогноз и управление валютными рисками // Управление финансовыми рисками. – Москва, 2009. – № 2(18). – 131 с.
3. Демская А. Л., Кокош А. М. Один день финансового риск-менеджера: валютный риск (хеджирование) // Управление финансовыми рисками. – Москва, 2013. – № 1(33). – 43 с.
4. Галанов В. А. Производные финансовые инструменты: Учебник / В. А. Галанов. – М.: Инфра-М, 2014. – 148 с.
5. Дмитриева М. А. Валютный риск: от определения к классификации // Российское предпринимательство. – Москва, 2015. – Т. 16, № 15. – С. 2423-2436.
6. Гусарова Л. В., Пожидаева Е. А. Методика управления валютными рисками в организациях с государственным участием // Управленческий учет. – Саратов, 2023. – № 7. – С. 208-214.
7. Пискулов Д. Ю. Теория и практика валютного дилинга: прикладное пособие. – М.: Инфра-М, 2006. – 154 с.
8. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг / Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – 807 с.
9. Ibodullayeva M.T. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari. I.f.f.d. avtoref. – Toshkent, 2022. – 52 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-oktabrdagi PQ-5268-sonli "Tadbirkorlik subyektlarining xorijiy valyutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq yukini kamaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.10.2021-y., 07/21/5268/0997-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019-yil 24-avgustdagi 21/3-sonli "Tijorat banklari uchun ochiq valyuta mavqelari limitlarini belgilash to'g'risida"gi yo'riqnomasi // www.cbu.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari - www.cbu.uz